



XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 29-dekabr

VII-17-165-6-0-K/25

Namangan viloyati

Namangan viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 25-dekabrda 01/57-1-29240-sonli xatiga muvofiq, viloyat hokimining 2025-yil 26-dekabrda 01/10-1707-son taqdimnomasini ko‘rib chiqib, xalq deputatlari Namangan viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni (keyingi o‘rinlarda Qonun deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Qonunga muvofiq, Namangan viloyati mahalliy budjetining 2026-yilgi daromadlari **4 697,8 mlrd.so‘m** va xarajatlari **6 985,2 mlrd.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar **2 287,4 mlrd.so‘m** miqdorida, shundan tamaki mahsulotlari uchun aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan transfertlar **296,4 mlrd.so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi; inobatga olinsin.

3. Quyidagilar:

Namangan viloyatining viloyat budjeti daromadlarining 2026-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilovaga**;

viloyatning viloyat budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **2-ilovaga**;

viloyat, tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlariga umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek soliq bo'lmagan to'lovlar bo'yicha belgilanadigan normativlari **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratma me'yorlari bo'yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy budjetlarining taqsimotini o'rnatilgan tartibda "Davlat moliyasini boshqarish" axborot tizimiga Namangan viloyati G'aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qo'yilsin.

4. Namangan viloyatdagi tuman (shahar) mahalliy budjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi **4-ilovaga** muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

5. Viloyatning viloyat budjeti shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag'larining 2026-yilda yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori **16 735,0 mln.so'm** etib hamda tumanlar va shaharlar budjetlari shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori **5-ilovaga** muvofiq belgilansin.

6. Viloyatning viloyat budjeti zaxira jamg'armasi hajmi 2026-yil uchun **36 614,5 mln.so'm** miqdorida belgilansin.

2026-yil uchun viloyatning viloyat budjeti, tumanlar va shaharlar budjetlarining zaxira jamg'armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan tumanlar va shaharlar budjetlarining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag'lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantiriladi.

Bunda tumanlar va shaharlar budjetlarining zaxira jamg'armalari miqdori oldingi yildagi hajmidan kam bo'lmagan miqdorda shakllantirilishi hamda qo'shimcha mablag'larni shakllantirish viloyatning viloyat budjeti zaxira jamg'armalari mablag'larini kamaytirish hisobidan amalga oshirilganligi inobatga olinsin.

viloyat, tuman va shaharlar budjetlarining zaxira jamg'armalari mablag'larini amaldagi Budjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo'lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta'minlansin.

7. Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar **6-ilovaga**, jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m² uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi

koeffitsiyentlar **7-ilovaga**, ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan binolar va inshootlarning 1 m² uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsiyentlar **8-ilovaga**, Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i **9-ilovaga**, Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar bo'yicha soliq stavkalar **10-ilovaga** hamda Soliq solish maqsadida qo'llaniladigan ko'chmas mulk obyektlarining ijarasi qiymatining 1 kvadrat metri uchun o'rnatilayotgan minimal miqdorlar **11-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda PQ-387-sonli qaroriga muvofiq, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi:

respublika budjetidan viloyatning viloyat budjetiga o'tkazib beriladigan daromad prognozining oshirib bajarilgan qismidan 50 foizini 2025-yil 1-dekabr holatiga statistika organlaridan olingan tuman (shahar)lar aholisining jami viloyat aholisi ulushiga muvofiq, tuman (shahar)lar budjetlariga belgilangan muddatlarda o'tkazish;

dehqon bozorlari, ixtisoslashtirilgan va buyum bozorlaridan tushgan soliqlar bo'yicha viloyat budjetiga o'tkazilgan mablag'larni ushbu sohadagi hamda mahallalarda infratuzilmani yaxshilash uchun mazkur bozorlar joylashgan tuman (shahar)lar budjetlariga to'liq o'tkazilishini ta'minlasin.

9. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari-iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig'i Z.Baxriddinov, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Muminov), viloyat soliq boshqarmasi (Sh.Imomov) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralari ko'rsin.

10. Barcha tuman va shahar hokimliklari, mas'ul boshqarma va tashkilotlar 2026-yil uchun ajratilayotgan budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish, budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushumini ta'minlash hamda budjet daromadlar bazasini oshirish va qo'shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratsin.

11. Viloyat soliq boshqarmasi (Sh.Imomov) hududiy soliq organlari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to'liq va to'g'ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o'z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o'rnatish;

yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo'yicha doimiy tahlililar o'tkazgan holda, soliqlarni to'liq hisoblanishini

ta'minlash hamda ushbu soliq to'lovlari bo'yicha soliq qarzdorligiga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rish;

aylanmadan soliq turi bo'yicha soliq to'lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o'rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o'tkazish;

yer va mol-mulk solig'ining soliq bazasini oshirish, ya'ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

12. Majburiy ijro byurosi Namangan viloyat boshqarmasi (B.Mirzaahmedov), viloyat soliq boshqarmasi (Sh.Imomov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko'rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo'yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko'rish vazifasi yuklatilsin.

13. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Namangan viloyat hududiy boshqarmasi (B.Matmusayev) Bo'sh turgan obyektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Namangan viloyat hududiy boshqarmasi (A.Axmadaliyev) bilan birgalikda:

bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo'yicha doimiy ravishda xatlov ishlarini tashkil etish;

xatlov natijalariga ko'ra viloyatda mavjud bo'sh turgan davlat mulki obyektlari ro'yxatini shakllantirish, ijaraga berish yoki sotish bo'yicha tegishli takliflar tayyorlash vazifasi yuklatilsin.

14. Namangan viloyati irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (J.Rizzayev) va viloyat soliq boshqarmasi (Sh.Imomov) tuman va shahar hokimlari bilan birgalikda viloyatda sug'orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo'yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste'mol hajmlari bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to'liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to'liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo'jaligi korxonalarini tomonidan iste'mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo'yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazishga alohida e'tibor qaratilsin.

15. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (Sh.Aliyev), Adliya boshqarmasi (D.Axmedov) viloyatda budjetga hisoblangan boj, jarima va yig'implarni o'z vaqtida to'liq mahalliy budjetga undirish choralari ko'rib borsinlar.

16. Viloyat soliq boshqarmasi (Sh.Imomov), Qishloq xo'jaligi boshqarmasi (N.Xudoyberdiyev) tuman (shahar) hokimlarining birinchi o'rinbosarlari bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 709-sonli

qaroriga asosan qishloq xo'jaligi yerlarini ijaraga berishda hisoblangan ijara va qo'shimcha to'lov summalarini belgilangan grafiklarga muvofiq mahalliy budjetlarga undirish choralarini ko'rsinlar.

17. Xalq deputatlari hududiy Kengashlari hamda tuman (shahar) hokimlari O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 27 va 28-moddalarida belgilangan budjet sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushumlar to'liq va o'z vaqtida tushishi hamda budjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o'rnatsin.

18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Namangan viloyatining Namangan shahri tarkibida Davlatobod tumanini tashkil etish bilan bog'liq tashkiliy masalalarni hal etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 12-noyabrdagi 718-son qaroriga muvofiq, Namangan shahri tarkibida Davlatobod tumani va "Namangan viloyatining Namangan shahri tarkibida Yangi Namangan tumanini tashkil etish bilan bog'liq tashkiliy masalalarni hal etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 8-maydagi 293-son qaroriga muvofiq, Namangan shahri tarkibida Yangi Namangan tumani tashkil etilganligini inobatga olib, tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritilgunga qadar shuningdek, viloyatlar bo'ysunuvidagi shaharlar tarkibidagi tumanlar Xalq deputatlari Kengashlari vakolatlarini cheklanib qolinishini oldini olish maqsadida, Namangan shahar budjetining 2026-yil boshida aniqlanadigan erkin qoldiq mablag'lari hamda daromadlarining birinchi-uchinchi hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismidan 25 (yigirma besh) foiz Namangan shahri tarkibidagi Davlatobod tumaniga, 25 (yigirma besh) foiz Namangan shahri tarkibidagi Yangi Namangan tumaniga yo'naltirilsin.

19. Hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilar har yili 25-yanvar kuniga qadar budjet mablag'larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan yillik faoliyati to'g'risida mahalliy Kengashlarga hisobot berib borsin.

Bunda, hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilar:

o'z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilish;

o'zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to'g'ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to'liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag'larning to'g'ri taqsimlanishi;

budjetdan ajratilgan mablagʻlardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan toʻlovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni toʻliq rejalashtirilishi va oʻz vaqtida toʻlanishini;

budjet jarayonining ochiqligini taʼminlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda maʼlumotlarni joylashtirib borilishini taʼminlasinlar.

20. Monopoliyaga qarshi koʻrashish qoʻmitasi Namangan viloyati hududiy boshqarmasi (F.Saloxiddinov) tuman va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini toʻliq xatlovdan oʻtkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari boʻyicha shartnomalar tuzish choralarini koʻrsin hamda ushbu shartnomalar boʻyicha yigʻimlarni budjetga toʻlanishi ustidan doimiy nazorat oʻrnatilsin.

21. Oʻzbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi Huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamentining Davlat moliyaviy nazorati Inspeksiyasi Namangan viloyati boshqarmasi (B.Xodjiyev) budjetdan ajratilgan mablagʻlarni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish va amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan har chorakda xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyalarida axborot berib borish vazifalari yuklatilsin.

22. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (I.Raxmatov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (A.Ergashev), Davlat soliq boshqarmasi (Sh.Imomov), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Muminov) bilan birgalikda viloyat teleradiokompaniyasi hamda viloyatdagi boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimlik muassisligidagi gazetalarda Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va toʻlov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa maʼlumotlarni eʼlon qilinishi hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

23. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

24. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi hamda viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari-iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshligʻi Z.Baxriddinov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



**MUMINOV
SOLIJON
DJALILOVICH**

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2025-yil 29-dekabrda
VII-17-165-6-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Namangan viloyatining viloyat budjeti daromadlarining
2026-yildagi asosiy prognoz ko'rsatkichlari**

(ming so'm)

№	Daromad turlari	Mahalliy reja
1	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	92,880,900
2	Yuridik shaxslar yer solig'i	86,650,700
3	Qo'shilgan qiymat solig'i	151,769,694
4	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	1,799,000
5	Davlat ulushi bo'yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	1,803,000
6	Aksiz solig'i, jami	357,222,450
	<i>shu jumladan:</i>	
	<i>- benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasidan soliq</i>	357,222,450
7	Davlat boji	148,227,840
8	Yig'imlar	61,428,130
9	Jarimalar	149,558,780
10	Foyda solig'i	315,048,650
11	Aylanmadan olinadigan soliq	41,299,320
12	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	1,128,851,660
JAMI		2,536,540,124
	Tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar	2,253,445,520
	<i>shundan, tamaki mahsulotlari uchun aksiz solig'idan</i>	296,406,000
HAMMASI		4,789,985,644

--	--

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2025-yil 29-dekabrda
VII-17-165-6-0-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Namangan viloyatining viloyat budjetidan hududiy budjet mablag'lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari

№	Hududiy budjet mablag'lari taqsimlovchilar nomi	<i>ming so'm</i> Cheklangan miqdor
	Xarajatlar miqdori, jami	4,823,996,624
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4,438,401,440
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	351,584,204
	Tuman va shahar mahalliy budjetlariga tartibga soluvchi transfertlar	34,010,980
1	Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi	484,552,688
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	223,296,284
	shundan:	
	"Yoshlik" sport markazi xarajatlari	0
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	261,256,404
2	Hamangan viloyati kasbiy ta'lim boshqarmasi	317,177,078
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	317,177,078
	shundan:	
	Kasbiy ta'lim boshqarmasi saqlash xarajatlari	838,064
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
3	Sog'liqni saqlash boshqarmasi	287,129,934
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	213,729,934
	shundan:	
	Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi markaziy apparati	7,062,060
	Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi filiali	3,137,248
	Bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi	0
	Sog'likni saqlash boshqarmasi kutubxonasi	0
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	73,400,000
4	Madaniyat boshqarmasi	70,009,702
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	70,009,702

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklanga nmiqdor
	ob‘yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi	3,479,893
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3,479,893
	ob‘yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	Sport boshqarmasi	135,648,027
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	135,648,027
	ob‘yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmasi	3,691,675
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3,691,675
	ob‘yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi	11,953,943
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	11,953,943
	shundan:	
	Issiqlik ta‘minoti tizimi tashkilotlari xarajatlari	
	Ko‘p kvartirali uylardagi lift uskunalari ta‘mirlash va yangilash xarajatli	1,230,000
	ob‘yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi	34,198,303
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	34,198,303
	ob‘yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi	103,959,247
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	98,649,247
	shundan:	
	Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	15,070,000
	ob‘yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	5,310,000
11	Transport boshqarmasi	1,583,206
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1,583,206
	ob‘yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi	19,073,237
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	19,073,237
	ob‘yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklanga nmiqdor
13	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi	2,955,369,210
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2,921,358,230
	shundan:	
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	3,000,000
	Advokatlik xizmatlari xarajatlari	2,300,000
	Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hududiy boshqarmasini saqlash xarajatlari	12,015,495
	G‘aznachilik xizmati qo‘mitasining hududiy boshqarmasi	6,759,298
	Kadastr agentligi Namangan viloyati boshqarmasini saqlash xarajatlari	2,544,316
	Davlat qarzlari (asosiy qarz) so‘ndirish bo‘yicha xarajatlar	
	Xalqaro moliyaviy institutlardan O‘zbekiston Respublikasi kafolati asosida olingan kreditlar bo‘yicha to‘lovlar	43,764,409
	Davlat ichki qarzigina xizmat ko‘rsatish bo‘yicha boshqa asosiy to‘lovlar	0
	Xalqaro moliyaviy tashkilotlardan O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida olingan kreditlar bo‘yicha asosiy to‘lovlar	76,583,125
	Issiqlik ta‘minoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qo‘llash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari (subsidiya)	13 157 605
	Tibbiy sug‘urta jamg‘armasiga o‘tkaziladigan transfertlar	2,750,559,874
	Tuman va shaxar mahalliy budjetlariga tartibga soluvchi transfertlar	34,010,980
	ob‘yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14	Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi	1,769,691
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1,769,691
	ob‘yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
15	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi	1,201,765
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1,201,765
	ob‘yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
16	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi	10,561,432
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	10,561,432
	ob‘yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
17	Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi	7,742,971
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7,742,971
	ob‘yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
18	Adliya boshqarmasi	19,345,707
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	19,345,707

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklanganmiqdor
	ob‘yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
19	Soliq boshqarmasi	102,098,544
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	102,098,544
	ob‘yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
20	Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	4,217,249
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4,217,249
	ob‘yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
21	Hokimiyat	188,388,413
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	176,770,613
	shundan:	
	Viloyat hokimligi huzuridagi tomorqa sug‘orish markazi Davlat muassasasi	284,704
	Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish o‘quv kursi	505,117
	Zaxira jamg‘armasi	36,614,506
	Xalq deputatlari Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari	
	Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi	
	Davlat qarzlarini (asosiy qarz) so‘ndirish bo‘yicha xarajatlar	6,560,503
	Xalqaro moliyaviy institutlardan O‘zbekiston Respublikasi kafolati asosida olingan kreditlar bo‘yicha to‘lovlar	
	Davlat ichki qarziga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha boshqa asosiy to‘lovlar	96,808,290
	Xalqaro moliyaviy tashkilotlardan O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida olingan kreditlar bo‘yicha asosiy to‘lovlar	0
	Avtobus yo‘nalishlarini subsidiyalash	6,300,000
	Issiqlik ta‘minoti tizimi tashkilotlari xarajatlari	0
	Issiqlik ta‘minoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qo‘llash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari (subsidiya)	0
	ob‘yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	11,617,800
22	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	18,040,650
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	18,040,650
	shundan:	
	Qabul uylarini saqlash xarajatlari	6,542,965
	Axborot-kutubxona markazlari	3,377,101
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	8,120,584
	Viloyati matbuot va axborot boshqarmasi	
	ob‘yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
23	Xalq deputatlari Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari	8,782,119
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8,782,119
	shundan:	
	Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi	4,486,401
	ob‘yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
24	Agrosanoat majmui ustidan nazorat kilish inspeksiyasining Namangan viloyat boshqarmasi	8,456,797
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8,456,797
	ob‘yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
25	Ichki ishlar boshqarmasi	11,224,909
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	11,224,909
	ob‘yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
26	Mudofaa ishlari boshqarmasi	3,840,699
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3,840,699
	ob‘yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
27	Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining hududiy boshqarmasi	5,772,399
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5,772,399
	ob‘yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
28	Boshqa tashkilotlar	4,727,136
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4,727,136
	ob‘yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining
2025-yil 29-dekabrda
VII-17-165-6-0-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun Namangan viloyatining viloyat, shahar va tumanlar budjetlari o'rtasida
ajratmalar normativlari belgilanadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar

foiz hisobida

№	Hududlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromadsolig'i				Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan				QQS				Foyda solig'i				benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda to'lanadigan aksiz solig'i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Namangan shahar	0%	10%	100%	90%	0%	100%	100%	0%	0%	5%	100%	95%	0%	10%	100%	90%	0%	5%	100%	95%	0%	60%	100%	40%
2	Mingbuloq tumani	0%	90%	100%	10%	100%	100%	0%	0%	0%	80%	100%	20%	0%	20%	100%	80%	0%	90%	100%	10%	0%	100%	100%	0%
3	Kosonsoy tumani	0%	90%	100%	10%	100%	100%	0%	0%	0%	95%	100%	5%	0%	10%	100%	90%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
4	Namangan tumani	0%	90%	100%	10%	100%	100%	0%	0%	0%	80%	100%	20%	0%	5%	100%	95%	0%	20%	100%	80%	0%	100%	100%	0%
5	Pop tumani	0%	54%	100%	46%	100%	100%	0%	0%	0%	50%	100%	50%	0%	5%	100%	95%	0%	10%	100%	90%	0%	100%	100%	0%
6	To'raqo'rg'on tumani	0%	65%	100%	35%	100%	100%	0%	0%	0%	55%	100%	45%	0%	20%	100%	80%	0%	30%	100%	70%	0%	100%	100%	0%
7	Uychi tumani	0%	90%	100%	10%	100%	100%	0%	0%	0%	70%	100%	30%	0%	5%	100%	95%	0%	75%	100%	25%	0%	100%	100%	0%
8	Chortoq tumani	0%	77%	100%	23%	100%	100%	0%	0%	0%	76%	100%	24%	0%	20%	100%	80%	0%	90%	100%	10%	0%	100%	100%	0%
9	Yangiqo'rg'on tumani	0%	83%	100%	17%	100%	100%	0%	0%	0%	61%	100%	39%	0%	10%	100%	90%	0%	20%	100%	80%	0%	100%	100%	0%
10	Norin tumani	0%	95%	100%	5%	100%	100%	0%	0%	0%	30%	100%	70%	0%	20%	100%	80%	0%	50%	100%	50%	0%	100%	100%	0%
11	Uchqo'rg'on tumani	0%	95%	100%	5%	100%	100%	0%	0%	0%	80%	100%	20%	0%	20%	100%	80%	0%	90%	100%	10%	0%	100%	100%	0%
12	Chust tumani	0%	55%	100%	45%	100%	100%	0%	0%	0%	66%	100%	34%	0%	15%	100%	85%	0%	13%	100%	87%	0%	70%	100%	30%

№	Hududlar nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i				Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanlik uchun soliq				Davlat ulushi bo'yicha dividendlar				Aylanmadan soliq	
		Tuman (shahar)lar budgetiga		Viloyatning viloyat budgetiga		Tuman (shahar)lar budgetiga		Viloyatning viloyat budgetiga		Tuman (shahar)lar budgetiga		Viloyatning viloyat budgetiga		Tuman (shahar)lar budgetiga		Viloyatning viloyat budgetiga		Tuman (shahar)lar budgetiga	Viloyatning viloyat budgetiga
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB		
1	Namangan shahar	0%	60%	100%	40%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%	28%	72%
2	Mingbuloq tumani	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	100%	0%
3	Kosonsoy tumani	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	100%	0%
4	Namangan tumani	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	88%	12%
5	Pop tumani	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	85%	15%
6	To'raqo'rg'on tumani	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	80%	20%
7	Uychi tumani	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	90%	10%
8	Chortoq tumani	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	100%	0%
9	Yangiqo'rg'on tumani	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	100%	0%
10	Norin tumani	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	100%	0%
11	Uchqo'rg'on tumani	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	100%	0%
12	Chust tumani	0%	70%	100%	30%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	100%	0%

№	Hududlar nomi	Davlat boji		Jarima		Yig'imlar	
		Tuman (shahar)lar budgetiga	Viloyatning viloyat budgetiga	Tuman (shahar)lar budgetiga	Viloyatning viloyat budgetiga	Tuman (shahar)lar budgetiga	Viloyatning viloyat budgetiga
1	Namangan shahar	5%	95%	5%	95%	5%	95%
2	Mingbuloq tumani	80%	20%	65%	35%	22%	78%
3	Kosonsoy tumani	6%	94%	10%	90%	5%	95%
4	Namangan tumani	5%	95%	5%	95%	8%	92%
5	Pop tumani	20%	80%	30%	70%	18%	82%
6	To'raqo'rg'on tumani	5%	95%	5%	95%	11%	89%
7	Uychi tumani	5%	95%	10%	90%	5%	95%
8	Chortoq tumani	60%	40%	61%	39%	60%	40%
9	Yangiqo'rg'on tumani	50%	50%	50%	50%	50%	50%
10	Norin tumani	20%	80%	20%	80%	20%	80%
11	Uchqo'rg'on tumani	44%	56%	80%	20%	21%	79%
12	Chust tumani	75%	25%	75%	25%	73%	27%

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-17-165-6-0-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Namangan viloyat Namangan shahar va tumanlar mahalliy budgetining 2026-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi

ming so'm

T/r	Hududlar nomi	Mahalliy budgetlarning jami daromadlar	Shundan		Mahalliy budget xarajatlari
			Mahalliy budget daromadlari	Tartibga soluvchi transfert miqdori	
	Jami	2,195,256.656	2,161,245,676	34,010,980	2,195,256,656
1	Namangan shahar	369,861,272	369,861,272		369,861,272
2	Mingbuloq tumani	130,564,550	130,564,550		130,564,550
3	Kosonsoy tumani	165,007,611	165,007,611		165,007,611
4	Namangan tumani	142,516,595	142,516,595		142,516,595
5	Pop tumani	195,320,950	195,320,950		195,320,950
6	To'raqo'rg'on tumani	174,356,956	174,356,956		174,356,956
7	Uychi tumani	165,846,680	165,846,680		165,846,680
8	Chortoq tumani	156,247,574	156,247,574		156,247,574
9	Yangiqo'rg'on tumani	169,938,801	169,938,801		169,938,801
10	Norin tumani	155,509,703	121,498,723	34,010,980	155,509,703
11	Uchqo'rg'on tumani	172,265,708	172,265,708		172,265,708
12	Chust tumani	197,820,256	197,820,256		197,820,256

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2025-yil 29-dekabrda
VII-17-165-6-0-K/25 -son qaroriga
5-ilova

**2026-yil uchun viloyatning viloyat, shahar va tumanlar budjetlari shaxsiy g'azna
hisobvaraqlarida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladiganeng kam
miqdori**

ming so'm

T/r	Hududlar nomi	summa
	Jami	4,765,158
1	Namangan shahar	964,135
2	Mingbuloq tumani	260,965
3	Kosonsoy tumani	355,061
4	Namangan tumani	293,239
5	Pop tumani	400,186
6	To'raqo'rg'on tumani	381,117
7	Uychi tumani	338,100
8	Chortoq tumani	329,110
9	Yangiqo'rg'on tumani	391,793
10	Norin tumani	304,718
11	Uchqo'rg'on tumani	351,838
12	Chust tumani	394,896

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2025-yil 29-dekabrda
VII-17-165-6-0-K/25 -son qaroriga
6-ilova

**Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha tuman va shaharlar
kesimida yer solig'i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar**

so'm hisobida

T/r	Hududlar nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i stavkalari, 1 ga uchun		
		2026-yil uchun bazaviy miqdor	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig'i stavkasi 2026-yil uchun (so'mda)
1	Namangan shahar	51,800,000.0	1.65	85,470,000.0
2	Mingbuloq tumani	51,800,000.0	1.10	56,980,000.0
3	Kosonsoy tumani	51,800,000.0	1.10	56,980,000.0
4	Namangan tumani	51,800,000.0	1.20	62,160,000.0
5	Pop tumani	51,800,000.0	1.10	56,980,000.0
6	To'raqo'rg'on tumani	51,800,000.0	1.20	62,160,000.0
7	Uychi tumani	51,800,000.0	1.20	62,160,000.0
8	Chortoq tumani	51,800,000.0	1.10	56,980,000.0
9	Yangiqo'rg'on tumani	51,800,000.0	1.10	56,980,000.0
10	Norin tumani	51,800,000.0	1.10	56,980,000.0
11	Uchqo'rg'on tumani	51,800,000.0	1.10	56,980,000.0
12	Chust tumani	51,800,000.0	1.20	62,160,000.0

Izox: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig'i stavkasini mahalla fuqarolar yig'inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko'paytiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-17-165-6-0-K/25 -son qaroriga
7-ilova

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha tuman va shaharlar kesimida yer solig'i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsientlar

so'm xisobida

T/r	Hududlar nomi	Jismoniy shaxslar bo'yicha, 1 kv.m uchun (turar joylar uchun belgilangan o'sish m'yoridan oshmagan holda)		
		2026-yil uchun bazaviy miqdor	Koeffi-sient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig'i stavkasi 2026-yil uchun
1	Namangan shahar	463.00	1.65	763.95
2	Mingbuloq tumani	463.00	0.90	416.70
3	Kosonsoy tumani	463.00	0.95	439.85
4	Namangan tumani	463.00	1.00	463.00
5	Pop tumani	463.00	0.85	393.55
6	To'raqo'rg'on tumani	463.00	1.10	509.30
7	Uychi tumani	463.00	1.00	463.00
8	Chortoq tumani	463.00	0.95	439.85
9	Yangiqo'rg'on tumani	463.00	0.90	416.70
10	Norin tumani	463.00	0.90	416.70
11	Uchqo'rg'on tumani	463.00	1.00	463.00
12	Chust tumani	463.00	1.00	463.00

Izox: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig'i stavkasini mahalla fuqarolar yig'inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko'paytiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-17-165-6-0-K/25 -son qaroriga
8-ilova

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan binolar va inshootlarning 1 m² uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsiyentlar

so'm hisobida

T/r	Hududlar nomi	Yuridik shaxslar bo'yicha		
		2026-yil uchun bazaviy miqdor	Koeffitsiyent (0,5 dan 1 gacha)	Mol-mulk solig'i stavkasi 2026-yil uchun
1	Namangan shahar	2,350,000	1	2,350,000
2	Mingbuloq tumani	1,390,000	1	1,390,000
3	Kosonsoy tumani	1,390,000	1	1,390,000
4	Namangan tumani	1,390,000	1	1,390,000
5	Pop tumani	1,390,000	1	1,390,000
6	To'raqo'rg'on tumani	1,390,000	1	1,390,000
7	Uychi tumani	1,390,000	1	1,390,000
8	Chortoq tumani	1,390,000	1	1,390,000
9	Yangiqo'rg'on tumani	1,390,000	1	1,390,000
10	Norin tumani	1,390,000	1	1,390,000
11	Uchqo'rg'on tumani	1,390,000	1	1,390,000
12	Chust tumani	1,390,000	1	1,390,000

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2025-yil 29-dekabrda
VII-17-165-6-0-K/25 -son qaroriga
9-ilova

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish obyektlarining kadastr qiymatiga nisbatan kiritilayotgan koeffitsiyentlar (Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i)

T/r	Hududlar nomi	Jismoniy shaxslar bo'yicha				
		2026-yil uchun soliq stavkasi koeffitsient				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo'lganlarini qo'shib hisoblaganda), ko'p kvartirali uylarga uzviy bog'liq bo'lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	Shaharlarda joylashgan uy-joylar va kvartiralar, umumiy maydoni:		Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiqbo'lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish ob'ektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk ob'ektlari
200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo'lgan	500 kv.m dan ortiq bo'lgan					
1	Namangan shahar	0.36	0.48	0.64	0.48	1.50
2	Mingbuloq tumani	0.36	0.48	0.64	0.48	1.50
3	Kosonsoy tumani	0.36	0.48	0.64	0.48	1.50
4	Namangan tumani	0.36	0.48	0.64	0.48	1.50
5	Pop tumani	0.36	0.48	0.64	0.48	1.50
6	To'raqo'rg'on tumani	0.36	0.48	0.64	0.48	1.50
7	Uychi tumani	0.36	0.48	0.64	0.48	1.50
8	Chortoq tumani	0.36	0.48	0.64	0.48	1.50
9	Yangiqo'rg'on tumani	0.36	0.48	0.64	0.48	1.50
10	Norin tumani	0.36	0.48	0.64	0.48	1.50
11	Uchqo'rg'on tumani	0.36	0.48	0.64	0.48	1.50
12	Chust tumani	0.36	0.48	0.64	0.48	1.50

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-17-165-6-0-K/25 -son qaroriga
10-ilova

**Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun belgilangan soliq
stavkasiga kiritilayotgan koeffitsientlar**

T/r	Hududlar nomi	Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar bo'yicha soliq stavkalari qishloq xo'jaligi ekinzorlarining normativ qiymatiga nisbatan		
		Soliq kodeksida belgilangan soliq stavkasi (foiz)	Koeffi-sient (0,5 dan 1,2 gacha)	2026-yil uchun soliq stavkasi (foiz)
1	Namangan shahar	0.95	1.20	1.14
2	Mingbuloq tumani	0.95	1.10	1.05
3	Kosonsoy tumani	0.95	1.00	0.95
4	Namangan tumani	0.95	1.10	1.05
5	Pop tumani	0.95	1.00	0.95
6	To'raqo'rg'on tumani	0.95	1.10	1.05
7	Uychi tumani	0.95	1.10	1.05
8	Chortoq tumani	0.95	1.10	1.05
9	Yangiqo'rg'on tumani	0.95	1.10	1.05
10	Norin tumani	0.95	1.10	1.05
11	Uchqo'rg'on tumani	0.95	1.10	1.05
12	Chust tumani	0.95	1.00	0.95

Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-17-165-6-0-K/25 -son qaroriga
11-ilova

Soliq solish maqsadida qo'llaniladigan ko'chmas mulk obyektlarining ijarasi qiymatining 1 kvadrat metri uchun o'rnatilayotgan minimal miqdorlar

so'mda

T/r	Hududlar	Turar joylar uchun			Noturar joylar uchun		
		2026-yil uchun minimal qiymat	Koeffi-sient	1 m.kv turar joylarning yakuniy narxi	2026y uchun minimal qiymat	Koeffi-sient	1 m.kv noturar joylarning yakuniy narxi
1	Namangan shahar	14,500.0	1.35	19,575.0	28,400.0	2.00	56,800.0
2	Mingbuloq tumani	5,900.0	1.35	7,965.0	11,800.0	1.50	17,700.0
3	Kosonsoy tumani	5,900.0	1.35	7,965.0	11,800.0	1.50	17,700.0
4	Namangan tumani	5,900.0	1.35	7,965.0	11,800.0	1.50	17,700.0
5	Pop tumani	5,900.0	1.35	7,965.0	11,800.0	1.50	17,700.0
6	To'raqo'rg'on tumani	5,900.0	1.35	7,965.0	11,800.0	1.50	17,700.0
7	Uychi tumani	5,900.0	1.35	7,965.0	11,800.0	1.50	17,700.0
8	Chortoq tumani	5,900.0	1.35	7,965.0	11,800.0	1.50	17,700.0
9	Yangiqo'rg'on tumani	5,900.0	1.35	7,965.0	11,800.0	1.50	17,700.0
10	Norin tumani	5,900.0	1.35	7,965.0	11,800.0	1.50	17,700.0
11	Uchqo'rg'on tumani	5,900.0	1.35	7,965.0	11,800.0	1.50	17,700.0
12	Chust tumani	5,900.0	1.35	7,965.0	11,800.0	1.50	17,700.0